

# TA'LIM SIFATINI O'LCHASH HAMDA BAHOLASH SHAKLI VA METODLARI, INDEKATORLARINI TANLASH

Ismatova Sevara Bo'riboy qizi  
Ochilova Kamola

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalar

**Anotatsiya:** Bugungi kunda ta'limga rivojlantirish maqsadida juda katta ishlar olib borilmoqda bundan ko'zlangan asosiy masala ta'limga sifatini oshirish, o'quvchilarga yuqori darajali ta'limga berish jarayonini tashkil etish hisoblanadi. Hozirgi kunda hech bir davlat yo'qki rivojlanish uchun ta'limga katta e'tibor qaratmagan bo'lgan bo'lsa.

**Kalit so'zlar:** Ta'limga sifati va uni ta'minlash, metod, ta'limga sifatini o'lchash va baholash indekatorlari.

**Kirish:** Bu maqolada ta'limga sifati va uni baholash metodlari hamda ularni tanlash qaytarzda amalga oshirilishi haqida yoritilgan.

**Asosiy qism:** Bugungi kunda zamonaviy ta'limga qattiq nazorat va adolatli boshqaruvni talab etmoqda. Ta'limga boshqaruv va nazoratning uyg'unligini ta'minlash sifat va samaradorlikni kalitidir. O'zbekiston Respublikasi ta'limga tizimida ta'limga sifati tizimli nazorat qilinmasa, o'quv jarayonida bir qancha muayyan muammolar yuzaga keladi. Shu sababli ta'llimni boshqarish, o'quv jarayonini, ta'limga turini, uning imkoniyatlarini hisobga olish vas hu bilan sifat menejmentining samarali ishlashini ta'minlash kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'limga tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida ta'limga sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzlusiz ta'limga tizimida ta'limga sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifatini va o'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi "Davlat oliy ta'limga muassasalarida Ta'limga sifatini nazorat qilish bo'limi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i asosida Ta'limga sifatini nazorat qilish bo'limining asosiy vazifalari belgilab berilgan.<sup>20</sup>

<sup>20</sup> <https://tuit.uz/talim-sifatini>



Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lism sifati muammosi murakkab va keng qamrovli masala. Ushbu muammoni ochib berish uchun tadqiqotning asosiy tushunchalari - "ta'lism" va "sifat"ga murojaat qilish kerak.

"Ta'lism" tushunchasi juda keng talqin qilinadi. Shuningdek, ta'lism uni tashkil etishning turli - shaxsiy, institutsional, mintaqaviy, davlat darajalarida ham ko'rib chiqiladi. E. Gusinskiy o'z konsepsiyasida ta'lism tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ta'lism - bu shaxsni madaniyatga o'rgatish, uning tillarida savodxonlik va uning matnlarida yo'naltirilganlikni egallashi jarayonidir" Uning boshqa ta'rifi quyidagicha: "Ta'lism - bu dunyo haqidagi tushunchalar, g'oyalar tizimini yaratish, shakllantirish va rivojlantirish jarayoni va natijasi bo'lib, u maqsadga intilish imkonini beradi".

Pedagogik lug'atda "ta'lism" tushunchasining talqini "tizimlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi; insonni hayotga tayyorlashning zaruriy sharti" deb bayon etilgan.

A.O.Tatur ta'limgi asosiy tizimlar shaklida ifodalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqadi:

- ❖ ta'lism mazmunini shakllantirish tizimi (nimani o'qitamiz?);
- ❖ o'quv faoliyatini tashkil etish tizimi (qanday o'qitamiz?);
- ❖ ta'lism sifatini baholash tizimi (natijada nimaga erishamiz?)<sup>21</sup>

Malumki o'quvchilarning bilim olish surati individualdir. Ayrim o'quvchilar bilimlarni tez, ayrimlari esa sekin o'zlashtiradilar, lekin ularning yutuqlari bir xil ko'rsatkichlar ( bilim hajmi, ijodiy faollik, mustaqillik) bilan tavsiflanishi mumkin.

Ta'limganing shaxsga yo'naltirilgan paradigmasi ta'lism sifatining oshishiga olib keldi. Ushbu yondashuvning mazmuni o'quvchilarning ma'lum mezonlarga ko'ra guruhlarga bo'lingan muammolarni yangi usulda hal qilish qobiliyatidan iborat:

- tanlagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish bilan bog'liq muammolar;
- zarur ma'lumotlarni qidirish, tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatiga qarab qaror qabul qilish uchun axborot bazasi bilan bog'liq muammolar;
- normalar va qoidalarning, ba'zan vaziyat xarakteridagi harakatlarini hisobga olgan holda qarirlarni qabul qilish va amalga oshirishning huquqiy asoslari bilan bog'liq muammolar;
- maqsadlarni amalga oshirish va o'z faoliyatini o'zo'zini tashkil etish yoki boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlar asosida qabul qilingan qarorni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar;

<sup>21</sup> B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.



-faoliyat natijalarini baholash bilan bog'liq muammolar va birinchi navbatda, baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha shakllangan ko'nikmalar asosida shaxsning ularni mustaqil ravishda baholash qobiliyati.

Shu bilan birga, ko'rsatilgan parametrlarning doimiy o'zgaruvchanligi tufayli ular bo'yicha ta'lism sifatini baholashning murakkab bo'lishi aniq. Bu borada G.N.Serikov shunday fikr bildiradi: shaxsning rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lism o'z maqsadiga u shaxs, uning o'zini o'zi rivojlantirish kuchlari talab qilinadigan vaziyatni yaratadigan darajada erishadi. Shuning uchun inson, birinchi navbatda, boshqalar orasida, boshqalar uchun va bu bilan o'zi uchun shaxsiylashtirilgan, o'zligini biladigan shaxs sifa tida ko'rib chiqilishi kerak.

Hozirgi vaqtda asosiy shaxsiy funksiyalarning uchta bloki mavjud:

1) mas'uliyat (axloqiy tanlov funksiyasi, hayotiy faoliyatni motivatsion asoslash va boshqalar);

2) o'z-o'zini anglash (ijodkorlik, erkinlik, mustaqillik, turli xil hayotiy to'siqlarni yenga olish, hayotning ma'naviy darajasini individual ta'minlashni rivojlantirish); 3) reflekslash (ma'no-qidiruv faoliyatini, "Men" obrazini rivojlantirishni, maqsadni shakllantirish avtonomiyasini ta'minlaydigan funksiya).

Umumdan olganda ta'lism sifatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlari ajratib

- ❖ ko'rsatish mumkin;
- ❖ pedagogik kadrlar sifati;
- ❖ ta'lism muassasasining moddiy-texnik bazasining holati;
- ❖ pedagogik xodimlarning rag'batlantirilishi;
- ❖ o'quv dasturlari sifati;
- ❖ talabalar sifati;
- ❖ infratuzilma sifati;
- ❖ bilim sifati;
- ❖ boshqaruvning innovatsion faoliyati;
- ❖ texnologik innovatsiyalarni joriy etish;
- ❖ bitiruvchilarga talab;
- ❖ bitiruvchilarning muvaffaqiyati.<sup>22</sup>

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lism sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida

<sup>22</sup> <https://cyberleninka.ru>



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 8-dekabrida 997-sonli qarorni qabul qildi.<sup>23</sup>

Qarorga ko'ra, quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS)-bosqlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

2. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS)-4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

3. The Programme for International Student Assessment (PISA)-15 yoshli o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

4. The Teaching and Learning International Survey (TALIS)-rahbar va pedagog kadrlarning umumiyligi o'rta ta'limga muassasalarida o'qitish va ta'limga olish muhitini hamda o'qituvchilarining ish sharoitlarini o'rganish uchun;

Yuqorida xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish uchun Ta'limga sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'limga sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi.<sup>24</sup>

❖ xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining milliy vakili sifatida ishtiroy etish;

❖ ta'limga tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

❖ ta'limga sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtiroy etish;

❖ ta'limga sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

❖ ta'limga sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'limga sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>24</sup> Axmadjonova Yo.T., Yaxshiyeva Z. Z., Axmadjonova U.T. Ta'limga sifatini baholash xorij tajribasi misolida o'rganilmoqda // O'qituvchining kasbiy standarti: amaliyotga joriy qilish va istiqboldagi vazifalar. -2021.



- 
- ❖ umumiy o'rta ta'lif muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;
  - ❖ O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
  - ❖ xalqaro baholash dasturlarini ta'lif jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lif muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;
- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki hozirgi vaqtida ta'lif sifatini boshqarish, unga innovatsitiyalar yangi metodlar jorey qilish bililan bir qatorda uni nazorat qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham ta'lif sifatini nazorat qilish inspeksiyasi va shu kabi bir qator tashkilotlar tashkil etildi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiya ham yurtimizda ta'limga uni sifatini ko'tarishga qaratilgan e'tiborning yaqqol namunasidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://tuit.uz/talim-sifatini>
2. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
3. <https://cyberleninka.ru>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. Axmadjonova Yo.T., Yaxshiyeva Z. Z., Axmadjonova U.T. Ta'lif sifatini baholash xorij tajribasi misolida o'rganilmoqda // O'qituvchining kasbiy standarti: amaliyotga joriy qilish va istiqboldagi vazifalar.-2021.

